Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







URUSH YILLARDA BAXSHICHILIK SAN'ATINING FAOLIYATI HAQIDA

Toshov Kamoliddin Tojinorovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Termiz iqtisodiyot va servis universitetiti
Xurramova Sabrina Abdirashidovna
TISU Tarix ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxon vohasi o'zining dostonchilik sohasidagi ma'naviy madaniyati bilan xalqimiz o'rtasida mashhur bo'lib, ularning ijodi tufayli milliy urf-odatlarimiz, an'analarimizni, qahromonlik, mardlik va jasurlik namunalarini ko'rsatib bergan.

Tayanch so'zlar: urush yillari, xalq og'zaki ijodi, dostonchilik, baxshichilik, terma, aytishuv, do'mbira kuylari, qahramonlik, jasurlik.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston xalqi fashizim ustidan g'alabaga erishishi uchun butun kuch g'ayratini safarbar etishga kirishgan onlarida, san'atkorlarimiz o'zlarining munosib ijodi bilan xalqimizni ertangi kunga ilohmlantirdilar. Ayniqsa, xalq baxshilari xalq og'zaki ijodining bebaho durdonasi bo'lgan dostonlar, termalar va aytushuvlar bilan o'zlarining hissasini qo'shdilar.

O'zbek xalqi qadimdan avlod-ajdodlari vatan taqdiri hal bo'layotgan davrda, chet el bosqinchilarga qarshi kurashlarda, og'ir-sinovli damlarda baxshilarning ma'naviy ijodidan kuch-quvvat olib, jipislashib,mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatganlar. Xuddi shunday holat, ikkinchi jahon urushi yillarida ham namoyon bo'lib, o'zbek baxshilari jang maydonlarida, front orqasida paxta dalalarida, chorva xo'jaliklarida, madaniy-oqartuv muassasalarida, zavod-fabrikalarida, harbiy gopitallarda o'zlarining ijodi bilan xalqimiz vakillarini g'alabaga bo'lgan ishonchlarni mustahkamladi. Diyonatsizlikdan, sotqinlikdan, urushda xoninlik qilishdan, vatangadolikdan, mehnatdan qochish kabi illatlardan saqlanishdan ogoh etib, hushyorlikga chaqirganlar. Ikkinchi jahon urushi yillarida an'anaviy dostonchilik xalqimizning milliy ozodlik kurash tarixi bilan uzviy tarzda og'zaki ijodni vatanga sadoqat ruhida ijtimoiy tafakkur olami bilan chambarchas bog'laganlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" gi 2018-yil 1- noyabr 3-PQ-3990 qarorida qayd etilgan: "Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi-fol'klor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'analarini saqlash va rivojlantirishda babaho manba hisoblanadi" degan fikrlari milliy o'zligimizning buyuk salohiyotdan darak beradi. O'zbek milliy dostonchiligi va baxshichiligi o'zining ijodkorligi hamda ijrochilik nufuzi bilan ikkinchi jahon urushi yillarida yangi dostonchilik yo'nalishida dushmanga nafrati hamda mardlik, jasrulik namunasi bilan birga boshiga og'ir kulfat tushgan boshqa tinchliksevar xalqlarga amaliy yordam berish kabi yangi qirralarni ochdi. Baxshilarni vatanga va xalqimizga bo'lgan mehr muhabbatini o'zlariga xos aktyorlik., musiqachilik hamda

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







ijrochilik qobiliyati bilan namoyish etdilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida dostonchilik va baxshichilik san'ati namunalari O'zbekistonning har bir xonadonida kirib kelib, xalqimizni g'alabaga bo'lgan ishonchini, o'zbek jangchilarni frontdagi jasoratlardan xabardor etuvchi ijro san'ati bilan uyg'unlashib, jangchilarni vatanparvar, insonpavrvar, mard-jasur bo'lib yetishiga ilhomlantirish bilan birga xalqimizni front orqasidagi mehnatlarni madh etuvchi termalarni yaratdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining davyurak, qurqmas mard botirlari, pahlovonlari, diyonatli, mehnatsevar fidoiy komil piri hikmat donishmandlarini, or-nomusdli, vijonli hamda yorga sodiqlik xislatlarini qalbdan o'ziga his etgan momolarini, ona va vafodor ayolarni, nomus uchun kurashga guzal-farishta qizlariga oid yangi termalarni yaratildi. Urushning eng og'ir davrlarida bu an'anaviy san'atda vatanga, xalqga, ota-onaga, do'st-qarindoshlarga, oila-yoriga nisbatan xoinlik, takaburlik, diyonatsizlik, vafosizlik qilganlarni do'mbira ko'ylariga solib ijro etilganligi muhim ahamiyatga egadir.

Ikkinchi jahon urushi yillarida dostonchilik san'atida muayyan mazmunli tizimga ega nazm va nasrdan tashkil topgan katta hajmli asar, qahramonlar silsilasi, voqealar halqasi uzviyligi va o'zaro hamohang bog'lanishi bilan xalq o'rtasida katta obru e'tibor topdi. Xalq baxshilari tomonidan urush yillarida Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni o'n birinchi bobining sarlavhasini ijro talqini qo'yidagicha bayon qilingan edi: "Shoh Bahrom dostonig'a shuru' qilurdin burun bir necha so'zga murtakib bo'lmoq va ul dostonda tag'yir va tabdil voqe' bo'lg'onning uzrin qo'lmoq... " [1]. Alisher Navoiy doston atamasini ayni shu o'rinda "Shoh Bahrom dostoni..." deganda "Shoh Bahrom qissasi..." ya'ni dostondan murod qissa bo'lib, rivoyat va afsona ma'nolariga ham ishora mavjud. Demak baxshilari uyqash ma'nolarni talqin etib, urush yillarida el hurmatiga sazovor bo'lgan fidoiylarni ushbu dostondagi qahromonlardek ulug'laganlar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida dostonchilik va baxshichilik san'atining beshigi hisoblangan Surxon vohasi o'zining dostonchilik sohasidagi ma'naviy madaniyati bilan urush yillarida xalqimiz o'rtasida mashhur bo'lib, ularning ijodi tufayli milliy urf-odatlarimiz, an'analarimizni, qahromonlik, mardlik va jasurlik namunalarini yanada mukammal rivoj topishga imkoniyat yaratdi. Bu haqida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi 2018-yil 1-noyabr. 3-PQ-3990 qarorida qayd etilgan: "O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularlarini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida" Surxon vohasi ma'naviy madaniyatiga yuksak baho berib, bu tuproq azaldan ilmu hunar, hikmat va san'at ruhi bilan yo'g'irilgan, Alpomishdek mard pahlavonlarni voyaga yetkazganligiga vohadagi har bir fuqaroni ma'naviy jihatdan ruhlantirdi .

Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxon dostonchilik va baxshichilik maktabini asosi bo'lgan Sherobod Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining bir necha tumanlari, Tojikiston va Turkmanistonning janubiy, qisman shimoliy Afg'oniston (o'zbeklar ko'p yashaydigan) hudud sarhadlarida yetishib chiqqan yuzlab baxshilarni birlashtirgan dostonchilik maktabidir. Urush yillarida Sherobod dostonchilik maktabidan Qosimko'r baxshi, Sherna Beknazar o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li,

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







Umir Safar o‘g‘li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o‘g‘li, Mamadrayim baxshi, Yusuf O‘tagan o‘g‘li, Eshqobil baxshi, Bo‘riboy Ahmedov, Qodir Rahim o‘g‘li kabi o‘nlab dostonchilar yetishib chiqdi [2]. Ikkinchi jahon urushi yillarida bu maktab vakillari “Oltin qovoq”, “Malla savdogar”, “Zayidqul”, “Ollonazar Olchinbek”, “Oychinor”, “Sherali”, “Kelinoy” kabi qator dostonlarni ijro etish xalqimizga ma’naviy ruh va ertangi g‘alabaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab. biroz bo‘lsada g‘am hamda xavf xatardan uzoq bo‘liga chorlagan [3]. Ikkinchi jahon urushi yillarida Sherobod baxshichilik maktabi dostonlari o‘zining soddaligi, madhining ixchamligi, matnning osonligi va ifodaning ravonligi bilan ajralib turgan..

Urush yillarida faol ijod qilgan Sherobod baxshichilik maktabining yirik vakillaridan biri baxshi Shoto‘ra yuzboshi Boyqul o‘g‘li (1887–1947) dir. Shoto‘ra yuzboshi Sherobod tumani, Kallamozor qishlog‘ida tavallud topadi, otasi Boyqul shoirdan baxshichilik sirlarini o‘rganadi. Boyqul baxshi bir necha marta Buxoro amiri Muzaffarxon huzurida doston aytib baxshichilik vasiqasiga sohib bo‘ladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Shoto‘ra baxshi ota izidan borib, elu - ulusga taniladi, xalqning vatan ozodligi va mustaqilligi va g‘alabga bo‘lgan ishonch ruhini singdirishga xizmat qiladi, u o‘z dostonlari bilan kishilarni xushnud aylaydi. Shoto‘ra baxshi “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkumiga oid qirqqa yaqin dostonlarni yuksak mahorat bilan kuylagan. Bundan tashqari “Yodgor”, “Shodmonbek”, “Savdogar” nomli boshqa qator dostonlar ham uning ijod bisotidan hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zining betakror ovozi, o‘ziga xos sozi bilan Sherobod baxshichilik maktabida unutilmas iz qoldirgan va shu maktabning yangi o‘zanini yarata olgan baxshilardan sanalmish Mardonaqul baxshi Avliyoqul o‘g‘li (1889–1975) betakror ijodi bilan alohida ajralib turgan. Sheroboddagi Ozon qishlog‘ida tavallud topadi, ikki yoshida onadan yetim qoladi va tog‘asi Sherna baxshi qo‘lida tarbiya topib, voyaga yetadi. Mardonaqul baxshi Sherna baxshiga ham jiyan, ham farzand, ham kuyov, ham shogird bo‘lib, u Sherna baxshidan dostonchilik sirlaridan, baxshichilik sehrlaridan ta’lim oladi. Mardonaqul baxshi dostonchilikda o‘z usulini ixtiro qila olgan yetuk san’atkorlar safida turadi. U ikkinchi jahon urushi yillarida “Alpomish” dostonini maroq bilan ko‘ylab, o‘zbek yigitlarni fashizimga qarshi kurashga mardlik. Botirlik namunasini ko‘rsatishga chorlagan. Mardonaqul baxshining dostonchilikdagi an’analarini denovlik baxshilardan Toshmurod To‘ra o‘g‘li (tavalludi 1897 yil), Eshmurod Sherdon o‘g‘li (tavalludi 1904 yil), angorlik Rahim baxshi (tavalludi 1899 yil), Qiyom baxshi Chori o‘g‘li (tavalludi 1907 yil), boysunlik Ulash baxshi G‘ozi o‘g‘li (1892–1969), sherobodlik Ali Said Hayitnazar o‘g‘li (1902–1953), tojikistonlik Bo‘ri baxshi Ahmad o‘g‘li (tavalludi 1914-yil) va boshqalar yuksak mahorat bilan davom ettirdilar [4]. Aslida Shoto‘ra yuzboshi, Mardonaqul baxshi, Mamarayim baxshi, Umir baxshi, Bo‘ri baxshi ijodi bilan alpomishgo‘ylikning yangi bosqichi boshlandi. “Alpomish” dostoni mavzusining chinakam qirralarini namoyish etish hozirda Surxon vohasi baxshilari tomonidan o‘sha qadim va ustuvor an’ana asosida davom ettirilmoqda.

Urush yillarida xalq baxshilarining roli har qachongidan ham ortdi. 1920-1930 yillardagi repressiyalar vaqtida baxshichilik san’ati juda qattiq tazyiqqa duch kelgan edi. Urush boshlanganidan keyin esa baxshilarni ta’qib etish to‘xtab qoldi. Ularning ijodiga talab kuchaydi. Baxshilar mehnatkash xalq oldida Alpomish, Go‘ro‘g‘li,

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







Kuntug‘mish singari xalq dostonlarini kuylab, ularning g‘alabaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaganlar. Urush tugaganidan so‘ng, O‘zbekiston FA til va adabiyot instituti bosh laboranti A.Nosirovning 1945-yil 2-dekabrda Sherobod rayispolkomida so‘zlagan ma’ruzasidan so‘ng uning taklifi bilan quyidagi xalq aytuvchilari (baxshilari) va ularning oila a’zolariga ilmiy xodimlar darajasida moddiy yordam berishga qaror qilindi. Bular:

1. Avliyoqulov Mardonaqul-oilasida 5 kishi;
2. O‘taganov Yusuf-4 kishi;
3. Eshmirzayev Jo‘ra-5 kishi;
4. Eson baxshi-3 kishi. Jami 17 kishi [5].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ikkinchi jahon urushi yillarida Surxon vohasi dostonchilik maktablarining o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, ushbu maktab an’anasi urush yillarida fashizimga qarshi olib borilgan kurashda halqimizning ma’naviy jihatdan qullab-quvvatlagan g‘oyaviy kuch sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

Foydalanidgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 10 –tom. Xamsa. Sab’ai sayyor.–Toshkent: Fan, 1992. –B.72.
2. Ergashev A., Xalilov D., «Yozi va Zebo» ishq dostoni, Qarshi, 2000.
3. Mirzaev T.O‘z ME. 2005 y 10 tom 46-bet
4. Murodov M., Alpomishnoma, 1-2-kitoblar, T., 1999, 2000.
5. Sherobod tuman davlat arxivi. 42-fond, 1-ro‘yxat, 376-ish, 1-2 varaqlar.
6. Toshov, K. T. (2021). Героизм Жителей Сурхандаринской Области В Годы Второй Мировой Войны. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 2(3), 91-96, 2021
7. Toshov, K. T. (2023). THE BEGINNING OF THE WAR AND THE INVOLVEMENT OF ALL FORCES AT THE FRONT. Modern Science and Research, 2(10), 264-268.
8. Тошов, К. Т. (2020). Деятелност трудящихся Сурхандаринской области по укреплению тыла в годы Второй мировой войны. Бюллетен науки и практики, 6(3), 567-570.
9. Toshov, K. T. (2020). G‘ALABAGA QO‘ShILGAN MUNOSIB HISSA. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(2).
10. Тошов, К. Т. (2023). Начало войны и задействование вцех сил на фронте, European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Volume-22, 300-305.
11. Toshov, K. T. (2024). IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN MUNOSIB HISSASI. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 1, 42-49.